

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING PUL-KREDIT SIYOSATI, TIJORAT BANKLARINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Aliyarov Olim Abdug‘aparovich

Termiz davlat universiteti Iqtisod va turizm fakulteti o‘qituvchisi
oaliyarov@umail.uz

Annotatsiya: Mamlakatimizda samarali pul-kredit siyosatini olib borishda rivojlangan davlatlarda qo‘llaniladigan tizimlarni tanishtirish va ularning amaliy ahamiyatini asoslashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy xulosa va tavsiyalarni shakllantirish zarur bo‘lib qoladi. Ushbu tadqiqotda samarali pul-kredit siyosatini o‘rganish bo‘yicha chora-tadbirlar ilmiy asosga ega.

Kalit so‘zlar: pul-kredit siyosati, milliy valyuta, inflyatsiya, valyuta kursi, qayta moliyalashtirish stavkasi, talab qilinadigan rezerv nisbati, ochiq bozor siyosati , markaziy bank stavkalari.

MONETARY CREDIT POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN, PURPOSES AND DUTIES OF COMMERCIAL BANKS

Abstract: In order to conduct an effective monetary policy in our country, it is necessary to introduce the systems used in developed countries and to formulate scientific and practical conclusions and recommendations that serve to justify their practical importance. In this study, measures to study effective monetary policy have a scientific basis. Key words: monetary policy, national currency, inflation, exchange rate, refinancing rate, required reserve ratio, open market policy, central bank rates.

Key words: monetary policy, national currency, inflation, exchange rate, refinancing rate, required reserve ratio, open market policy, central bank rates.

ДЕНЕЖНО-КРЕДИТНАЯ ПОЛИТИКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН, ЦЕЛИ И ОБЯЗАННОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Аннотация: Для проведения эффективной денежно-кредитной политики в нашей стране необходимо внедрить системы, используемые в развитых странах, и сформулировать научно-практические выводы и рекомендации, служащие

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

обоснованию их практической значимости. В данном исследовании меры по изучению эффективной денежно-кредитной политики имеют научную основу.

Ключевые слова: денежно-кредитная политика, национальная валюта, инфляция, обменный курс, ставка рефинансирования, норма обязательных резервов, политика открытого рынка, ставки центрального банка.

KIRISH

“Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichi banklar tomonidan turli yoshdagи odamlarning paydo bo‘ladigan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xizmatlar ko‘laming har tomonlama kengayishi bilan tavsiflanadi”. Ular orasida jismoniy shaxslarga kredit berish alohida ahamiyatga ega.Kredit operatsiyalari bank faoliyatining eng jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ular daromadlarining katta qismini keltiradi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslarga kredit berish aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi va barqaror rivojlanish bilan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonlariga hissa qo’shadigan milliy iqtisodiyotning o’ta muhim elementi hisoblanadi. “Bozor munosabatlari kredit munosabatlarining rivojlanishiga yordam beradi, chunki kredit berish va aholining xarid qobiliyatini rag‘batlantirish uy-joy qurilishi yoki ishlab chiqarish, chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida iqtisodiyfaollikni tezlashtiruvchi omillardan biridir. Aholining ehtiyojlarini qondirish uchun kredit tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan vaqtinchalik imtiyozlarga qaramasdan, to‘lanmagan qarzlarning mavjudligi har doim fuqarolarning moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun xavf hisoblanadi”. Bank faoliyatini takomillashtirish, bank tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash masalalari bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining markazida turibdi. Bank tizimi milliy iqtisodiyot tizimining eng muhim elementidir. Banklar kredit vositachisi sifatida pul oqimlarini toplash va ularni hududiy va tarmoq jihatlarida iqtisodiyot tarmoqlari o’rtasida qayta taqsimlash qobiliyatidan iborat bo‘lgan aniq funksiyalarni bajaradilar. Ushbu funksiyalarni amalga oshirish orqali banklar barqaror iqtisodiy o’sishni rag‘batlantiradi.

Markaziy bank boshqaruvi 2024-yil 25-apreldagi yig‘ilishida iqtisodiyotdagi inflyatsion jarayonlarga fundamental monetar omillar ta’siri bosqichma-bosqich kamayib borayotgani va shu bilan birga ayrim tartibga solinadigan tariflarning erkinlashtirilishi umumiyl inflyatsiyaga bir martalik ta’sir ko‘rsatishini inobatga olib,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

asosiy stavkani yillik 14 foiz darajasida o'zgarishsiz qoldirdi. Umumiy inflyatsiya yil boshidan pasayishda davom etib, mart oyida yillik 8 foizni tashkil etdi. Bunda, oziq-ovqat tovarlari inflyatsiyasida sezilarli pasayish kuzatildi. Tashqi oziq-ovqat bozorlaridagi narxlar dinamikasi import inflyatsiyasiga pasaytiruvchi ta'sir ko'rsatdi.

Iqtisodiyotda yuqori talabning saqlanib qolayotgani hamda ayrim tartibga solinadigan narxlar va tariflarning oshirilishi sharoitida xizmatlar inflyatsiyasi so'nggi oylar davomida barqaror o'sib bormoqda. Bazaviy inflyatsiya sezilarli sekinlashib, mart oyida yillik 7,6 foiz va yil boshidan umumiy inflyatsiya darajasidan pastroq shakllandi. Aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari inflyatsiyaning joriy va prognoz darajasidan yuqoriligidcha qolmoqda. Shu bilan birga, tartibga solinadigan narxlarning to'g'rilanishi va aprel oyidan bir qator tovar va xizmatlarga QQS joriy etilishi ta'sirida inflyatsion kutilmalar dinamikasi yuqorilashi mumkin. Yuqoridagi omillarni hisobga olib, yangilangan makroiqtisodiy prognozlarga ko'ra, asosiy ssenariy bo'yicha 2024-yilda umumiy inflyatsiya prognozi 9-11 foizgacha oshirildi. Prognoz koridorining nisbatan kengligi tariflar oshirilishi munosabati bilan aholiga taqdim etiladigan bir martalik to'lovlar, ijtimoiy norma va ikki oylik imtiyozli davr mazkur o'zgarishlar ta'sirini yumshatish imkonini berishi hamda hozirgi paytda ushbu o'zgarishlarning aholi va tadbirkorlar inflyatsion kutilmalariga ta'sirini baholash murakkabligi bilan izohlanadi. Inflyatsiya prognozining yuqori chegaralarida ham ta'minlanayotgan pul-kredit sharoitlarining inflyatsiyaga monetar omillar ta'sirini cheklovchi va milliy valyutada jamg'arishni rag'batlantiruvchi xususiyatlari saqlanib qoladi.

Pul-kredit sohasida amalga oshirilgan islohotlar jarayonida asosiy e'tibor quyidagi jihatlarga qaratildi:


- valyuta siyosatini erkinlashtirish;
- bank xizmatlari ommabopligrini oshirish;
- inflyatsion targetlash tartibiga bosqichma-bosqich o'tish;
- bank sektorini erkinlashtirish.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning I choragida iqtisodiyotning o'sish sur'ati 6,2 foizgacha tezlashdi. Xizmat ko'rsatish, chakana savdo aylanmasi va qurilish sohalaridagi yuqori o'sish sur'atlari, shuningdek, ishlab chiqarish va tog'-kon sanoati sohalarida investitsion faollikning oshishi kuzatildi. Mehnat bozorida ishchi kuchiga


ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

bo‘lgan talab sezilarli darajada oshib bormoqda. Biroq ishchi kuchi taklifida ma’lum segmentatsiya mavjud bo‘lib, yuqori malakali sohalarda talabning to‘liq qondirilmayotganligi kuzatilmoqda. Bu esa tegishli sohalarda ish haqlarining yuqoriroq o‘sishiga olib kelmoqda. So‘mning real almashuv kursi dinamikasi yil boshidan 0,9 foizga qadrsizlanib, uzoq muddatli trendi doirasida shakllandi. Tashqi savdo hamkorlar milliy valyutalari kurslari va inflyatsiyalari bo‘yicha prognozlarni inobatga olganda real almashuv kursiga nisbatan bosimlar kuzatilmayapti. Yangilangan prognozlarga ko‘ra, YaIM o‘sishi yil yakuniga 5,2-5,7 foiz oralig‘ida bo‘lishi kutilmoqda. Tashqi savdo. Joriy yilning I choragi yakunlariga ko‘ra, eksport (oltinsiz) o‘sish dinamikasi asosiy ssenariy prognozlari doirasida shakllanib keldi. Shu bilan birga, geosiyosiy vaziyatdagi noaniqliklarning davom etishi, joriy yil oxiriga qadar yetakchi markaziy banklar tomonidan pul-kredit sharoitlarining yumshatish sikli boshlanishi haqidagi taxminlar va oltinga bo‘lgan talabning oshib borishi, o‘z navbatida, oltin narxi oshishining asosiy omillaridan bo‘lmoqda. Shuningdek, jahonda atom energetikasining roli ortib borayotganligi sababli uran qimmatlashishi va Xitoy ishlab chiqarish sektoridagi ijobiy tendensiyalar tufayli mis narxining o‘sishi joriy yilda oltinsiz eksport dinamikasini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Mehnat bozoridagi faollik yanada kengayib, xizmatlar va savdo sohalari bozordagi faollikni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy tarmoqlardan bo‘lib qoladi. Biroq, ishchi kuchi taklifining hali ham talabga nisbatan tarkibiy jihatdan muvozanatsiz bo‘lib qolishi, iqtisodiyotda sohalar kesimida ish haqining o‘sish sur’atlarida farqlarni keltirib chiqarishi mumkin.

1.1.1-rasm. YalM o'sishi prognozi, foizda



1.1.2-rasm. Xalqaro moliya tashkilotlarining O'zbekiston YalMi o'sishi bo'yicha prognozi, foizda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Jahon banki tomonidan yangilangan prognozlarga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi mos ravishda 5,2 va 5,3 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda (1.1.2-rasm).

Iqtisodiy o'sishning yanvar oyidagi prognozlarga nisbatan biroz (0,2-0,3 foiz bandga) pasaytirilishi global talabning qisqarishi fonida fiskal konsolidatsiya jarayonlari va savdo-hamkor davlatlarga eksport o'sishining ma'lum darajada kamayishi bilan izohlangan.

So'nggi choraklarda umumiyligi va bazaviy inflyatsiya darajalari barqaror pasayishda davom etdi. Bu iqtisodiyotdagi inflyatsion jarayonlarga fundamental monetar omillar va tashqi sharoitlar ta'siri kamayib borayotgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ayrim tartibga solinadigan narxlarning bosqichma-bosqich oshirilishi kelgusida inflyatsiyaga oshiruvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oxirgi 12 oy davomida inflyatsiya darajasi pasayib borishi bilan pul-kredit sharoitlarining qat'iylik darajasi saqlab qolimmoqda. Bundan tashqari, ichki valyuta bozoridagi oldi-sotdi amaliyotlari bo'yicha hisobkitoblar xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi hamda "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021–2025 yillarga mo'ljallangan valyuta interventsiyalari strategiyasi" tasdiqlandi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Markaziy bank pul-kredit siyosati mexanizmlarini inflatsion targetlash rejimiga muvofiqlashtirish bo‘yicha ishlarni faol davom ettirib kelmoqda. Asosiy maqsad esa, ta’sirchan pul-kredit siyosatini yuritish orqali o‘rta muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta’minlash va inflatsiya darajasini maqsadli ko‘rsatkichga qadar pasaytirishdan iborat. Bunda, albatta pul-kredit siyosatining mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati ham ortib boradi. Ushbu rejalarни amalga oshirish doirasida moliya sohasida tartibga solish tizimini takomillashtirish va kichik biznesni moliyalashtirish ekotizimini rivojlantirishga ham asosiy e’tibor qaratiish kerak.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020–2025 yillargamo’ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishstrategiyasi to’g’risida” gi Farmoni. PF-5992-son. 12.05.2020 y.
2. <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/reviews/1687916/>
3. <http://www.lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti20.<https://www.imv.uz>
4. Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti <http://www.soliq.uz>
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti - <http://www.stat.uz>